

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

Andijon Mashinasozlik instituti

«Oliy matematika» kafedrası

Oliy matematika fanidan
laboratoriya mashg`ulotlarini bajarish bo'yicha
USLUBIY KO`RSATMA

Bilim sohasi: 300000 – Ishlab chiqarish-texnik soha

Ta'lim sohasi: 310000- Muhandislik ishi

Ta'lim yo'nalishi: 5310500 – Avtomobilsozlik va traktorsozlik

ANDIJON-2013

«TASDIQLAYMAN»
Andijon mashinasozlik instituti
O'quv-uslubiy kehgashida ko'rib chiqilgan va
ma'qullangan

Kengash raisi _____ Q.Ermatov

« » bayonnoma _____ 2013 yil.

«MA'QULLANGAN»
«Mashinasozlik» fakulteti
kengashida muhokama qilingan va
ma'qullangan

Kengash raisi _____ N. Halilov

« » bayonnoma _____ 2013 yil.

«TAVSIYA ETILGAN»
«Oliy matematika» kafedrasi
majlisida muhokama qilingan va tavsiya etilgan

Kafedra mudiri _____ A.G. Abdullayev
(Kafedra majlisining - sonli bayonnomasi
« » _____ 2013 y.

Taqrizchilar: t.f.n., dotsent S. Ergashev

dotsent R. Nazarov (ADU)

Tuzuvchilar:

Dotsentlar A. Abdullayev, F.A.Aliyev, A.T.Djalilova, assistent A. Djabborov
«Oliy matematika» fani . —A.: AndMI, 2013 y.

Soʻz boshi.

Elektron hisoblash mashinalari fan va texnikaning turli sohalariga chuqur kirib bormoqda, shuning uchun har bir olim, injener, konstruktor, shifokor, iqtisodchi va boshqalar hisoblash texnikasi va amaliy matematika usullarini etarli darajada bilishlari talab qilinmoqda.

Hozirgi davrda amaliy matematikaning bir qator boʻlimlari boʻyicha darsliklar, oʻquv qoʻllanmalar mavjud. Lekin ularning kam qismi oʻzbek tilida boʻlib, talabalarning chuqur bilim olishiga qiyinchilik tugʻdirmoqda. Shularni hisobga olib, oliy matematikadan oʻzbek tilida laboratoriya mashgʻulotlarini bajarish uchun uslubiy koʻrsatma yaratish maqsadga muvofiq deb topilmoqda.

Ushbu uslubiy koʻrsatmada “Kasb taʼlimi”, “Materialshunoslik va yangi materiallar texnologiyasi”, “Mashinasozlik texnologiyasi, mashinasozlik ishlab chiqarishni jihozlash va avtomatlashtirish”, “Texnologik mashinalar va jihozlar”,

“Avtomobilsozlik va traktorsozlik”, “Elektr texnikasi, elektr mexanikasi va elektr texnologiyasi”, “Metrologiya, standartlash va mahsulot sifati menejmenti”, “Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish” yoʻnalishlarining 1- va 2- bosqich talabalari oliy matematikadan bajaradigan laboratoriya mashgʻulotlari yoritilgan boʻlib, bunda asosiy eʼtibor kompyuterlardan foydalanishga qaratilgan.

Uslubiy koʻrsatmada laboratoriya ishlarini bajarish namunalari va talabalar bajarishi kerak boʻlgan variantlar keltirilgan.

Laboratoriya mashgʻulotini talaba kompyuterda bajarishi maqsadga muvofiqdir. Variantlar roʻyxat boʻyicha olinadi. 25 tadan koʻp talabasi bor guruhlarda 26-oʻrinda turgan talaba 1-variantni, 27- oʻrinda turgan talaba 2-variantni va hokazo bajaradilar. Ushbu yoʻnalishlarning ishchi oʻquv rejalarida laboratoriya mashgʻulotlari jami 18 soatdan qilib belgilangan.

MUNDARIJA

№	Laboratoriya ishi nomi	Bet
1	$f(x)=0$ tenglamaning ildizlarini ajratish va oraliqni teng ikkiga bo'lish usuli bilan taqribiy yechish.	5
2	$f(x)=0$ tenglamani oddiy iteratsiya usuli bilan taqribiy yechish.	7
3	$f(x)=0$ tenglamani Nyuton usuli bilan taqribiy yechish.	10
4	Chiziqli tenglamalar sistemasini oddiy iteratsiyalar usuli bilan yechish	12
5	Aniq integrallarni taqribiy hisoblash, to'g'ri to'rtburchak, trapetsiyalar, Simpson usuli.	19
6	Birinchi tartibli differentsial tenglama uchun Koshi masalasini Eyler usuli bilan yechish.	23
7	Chiziqli regressiya tenglamasi. Eng kichik kvadratlar usuli	28
8	Bosh to'plam parametrlarini oraliqli baholashlar.	36
9	Adabiyotlar	42

1-laboratoriya ishi.

Mavzu: $f(x)=0$ tenglamaning ildizlarini ajratish va oraliqni teng ikkiga bo'lish usuli.

Tenglamalarini taqribiy yechish jarayoni ikki bosqichga bo'linadi:

- 1) ildizlarni ajratish;
- 2) ildizlarni berilgan aniqlikda topish;

I. $[a,b]$ kesmada $f(x)=0$ tenglamaning $x=\xi$ (dan boshqa ildizi bo'lmasa, ildiz $x=\xi$ ajratilgan hisoblanadi. Ildizlarni ajratish uchun $[a,b]$ kesmani shunday kesmachalarga bo'lish kerakki, bu kesmachalarda tenglamaning faqat bitta ildizi bo'lsin. Ildizlarini grafik va analitik usullar bilan ajratish mumkin.

Ildizlarini grafik usulda ajratish.

1-hol. Bu holda Dekart koordinatalar sistemasida $y=f(x)$ funksiyaaning grafigini chizamiz. Shu grafikning OX o'qi bilan kesishgan nuqtalari izlanayotgan taqribiy ildizlar bo'ladi.

2-hol. $f(x)=0$ tenglamani $f_1(x)=f_2(x)$ ko'rinishda yozib olamiz. Dekart koordinatalar sistemasida $f_1(x)$ va $f_2(x)$ funksiyaalarning grafiklarini chizamiz. Agar bu egri chiziqlar o'zaro kesishsa, kesishgan nuqtalardan OX o'qiga perpendikulyar o'tkazamiz, hosil bo'lgan nuqtalar taqribiy yechimlar bo'ladi. Bu usullar bilan tenglamalarni echganda aniqroq yechimlar olish uchun grafiklarni iloji boricha aniq chizish kerak. Grafik usul bilan tenglamaning ildizlarini biror chegaralangan kesmada aniqlaymiz. Agar ildizlarni yuqori aniqlikda topish kerak bo'lsa, boshqa taqribiy usullardan foydalanamiz.

Ildizlarni analitik usulda ajratish.

$f(x)=0$ tenglamaning ildizlarini analitik usulda ajratish uchun oliy matematikadagi ba'zi teoremlarni isbotsiz keltiramiz.

1-teorema. Agar $f(x)$ funksiya $[a,b]$ kesmada uzluksiz bo'lib, kesmaning chetki nuqtalarida turli ishorali qiymatlar qabul qilsa, u holda shu kesmada berilgan tenglamaning kamida bitta ildizi yotadi.

2-teorema. Agar $f(x)$ funksiya $[a,b]$ kesmada uzluksiz va monoton bo'lib, kesmaning chetki nuqtalarida turli ishorali qiymatlar qabul qilsa, u holda shu kesmada berilgan tenglamaning faqat bitta ildizi yotadi.

II. Yuqorida topilgan taqribiy qiymatlarning aniqligini orttirish uchun kesmani ikkiga bo'lish usulini qo'llash mumkin.

Faraz qilaylik, $f(x) \neq 0$ tenglamaning biror $x=\xi$ ildizi $[a,b]$ kesmada ajratilgan bo'lsin, kesmaning uzunligini $d=b-a$ deb belgilaymiz. Tenglamaning $x=\xi$ yechimini $\varepsilon = 0.001$ aniqlikda topilsin.

ξ ildiz $[a,b]$ kesmaning ichida bo'lganligi uchun a ni kami bilan, b ni ortig'i bilan olingan taqribiy ildiz deb olishimiz mumkin. Agar $d < 0.001$ bo'lsa, masala echiladi va a hamda b lar $f(x)=0$ tenglamaning berilgan aniqlikdagi

yechimi boʻladi. Bu holda taqribiy yechim sifatida a va b lardan tashqari ular orasida yotgan istalgan x_1 ni olish mumkin. Taqribiy yechim sifatida $x_1 = \frac{a+b}{2}$ ni olish maqsadga muvofiq boʻladi.

Faraz qilaylik, $d < 0.001$ va $[a, b]$ kesmaning oʻrtasida $x_2 = \frac{a+b}{2}$ nuqta olingan boʻlsin. U holda $[a, b]$ kesma uzunliklari $\frac{b-a}{2}$ ga teng boʻlgan $[a, c]$ va $[c, b]$ kesmalarga ajraydi. Shu ikki kesmadan qaysi birining chetki nuqtalarida $f(x)$ funksiyaa ishoralari turlicha boʻlsa, shu kesmani tanlab, yuqoridagi jarayonni takrorlaymiz. Bu jarayon kesmaning uzunligi $d \leq \varepsilon$ tengsizlikni qanoatlantirganda ishni toʻxtatamiz. Ildizning qiymati uchun ξ aniqlangan kesmaning oʻrta nuqtasi olinadi.

Misol. $x^3 - 4x - 1 = 0$ tenglamaning $\varepsilon = 0.001$ aniqlik bilan biror ildizi topilsin.

Quyidagi jadvalni tuzamiz:

x	-1	0	1	2	2,1	2,2
$f(x)$ ning ishorasi	+	-	-	-	-	+

Jadvaldan koʻrinadiki, $[-1; 0]$ va $[2.1; 2.2]$ kesmalarda taqribiy yechim bor. Shart boʻyicha olingan qulay kesma $[2.1; 2.2]$ boʻladi, bunda $f(2.1) = -1.39 < 0$; $f(2.2) = 0.85 > 0$ $a = 2.1$; $b = 2.2$; $d = b - a = 2.2 - 2.1 = 0.1 > \varepsilon$

Demak, hisoblashni davom ettiramiz:

$$f(2.11) = -0.046 < 0; \quad f(2.12) = 0.046 > 0$$

Bu erdan $a = 2.11$; $b = 2.12$; $d = b - a = 2.12 - 2.11 = 0.01 > \varepsilon$ boʻlganligi uchun hisoblashni yana davom ettiramiz:

$$f(2.114) = -0.0085 < 0; \quad f(2.115) = 0.0009 > 0,$$

$$\text{bunda } a = 2.114; \quad b = 2.115; \quad d = b - a = 2.115 - 2.114 = 0.001 = \varepsilon$$

Qoʻyilgan maqsadga erishdik, ya'ni kesmaning uzunligi d berilgan aniqlik $\varepsilon = 0.001$ dan katta emas. Bu misolda izlanayotgan taqribiy yechim ξ quyidagi oraliqda boʻladi: $2.114 < \xi < 2.115$

I-laboratoriya ishini bajarish uchun variantlar.

Quyidagi tenglamalarni $\varepsilon = 0.01$ aniqlik bilan biror ildizi topilsin.

1. $2x^3 - 3x^2 - 12x - 5 = 0$

2. $x^3 - 3x^2 + 3 = 0$

3. $x^3 + 3x^2 - 24x - 10 = 0$

4. $2x^3 + 9x^2 - 21 = 0$

5. $x^3 + 3x^2 - 2 = 0$

6. $x^3 + 3x^2 - 24x + 10 = 0$

7. $2x^3 + 9x^2 - 10 = 0$

8. $x^3 - 3x^2 - 4 = 0$
9. $x^3 + 3x^2 - 3 = 0$
10. $x^3 + 3x^2 + 2 = 0$
11. $2x^3 + 9x^2 - 1 = 0$
12. $x^3 + 3x^2 - 1 = 0$
13. $x^3 - 12x + 6 = 0$
14. $x^3 - 3x^2 + 1.5 = 0$
15. $x^3 + 3x^2 - 2.5 = 0$
16. $x^3 - 4x^2 + 2 = 0$
17. $2x^3 + 6x^2 - 5 = 0$
18. $x^3 - 12x - 10 = 0$
19. $x^3 - 3x^2 + 3.5 = 0$
20. $x^3 - 6x - 8 = 0$
21. $x^3 + x - 5 = 0$
22. $x^3 - 4x - 6 = 0$
23. $x^3 - 2x - 4 = 0$
24. $x^3 + x - 3 = 0$
25. $x^3 - x^2 + x + 2 = 0$

2-laboratoriya ishi.

Mavzu: $f(x) = 0$ tenglamani oddiy iteratsiya usuli bilan taqribiy yechish.

Tenglamani yechishning iteratsiya usuli ketma-ket yaqinlashish usuli ham deb yuritiladi.

Bizga $f(x) = 0$ tenglamaning taqribiy ildizini aniqlash masalasi qo'yilgan bo'lsin. Buning uchun berilgan tenglamani o'ziga teng kuchli bo'lgan

$$x = \varphi(x) \quad (1)$$

tenglama ko'rinishida yozib olamiz. $f(x) = 0$ tenglamani x ga nisbatan echsak (1) tenglamani hosil qilish oson. (1) tenglamaning ildizi biror $[a, b]$ kesmada ajratilgan bo'lsin. Kesmani ichida ixtiyoriy $a \leq x_0 \leq b$ shartni qanoatlantiruvchi x_0 nuqtani tanlab olamiz va bu nuqtani nolinchi boshlang'ich yaqinlashish deb qabul qilamiz. x_0 qiymatni (1) tenglamaning o'ng tomoniga qo'yib, hosil bo'lgan natijani x_1 deb olsak

$$x_1 = \varphi(x_0) \quad (2)$$

hosil bo'ladi.

(2) tenglamadagi x_1 birinchi yaqinlashish bo'yicha (1) tenglamaning ildizi deyiladi.

Keyingi yaqinlashishlar ham xuddi shunday topiladi va natijada quyidagi ketma-ketlik hosil bo`ladi.

$$\begin{aligned}
 x_1 &= \varphi(x_0), \\
 x_2 &= \varphi(x_1), \\
 &\dots\dots\dots, \\
 x_n &= \varphi(x_{n-1}), \\
 &\dots\dots\dots
 \end{aligned}
 \tag{3}$$


Agar bu ketma-ketlikning limiti mavjud bo'lsa, u limit (1) tenglamaning ildizi bo'ladi. Agar uning limiti mavjud bo'lmasa, u holda ketma-ket yaqinlashish ildizi bo'lmaydi. (3) ketma-ketlikda x_0 –boshlang'ich yaqinlashish, x_1 –birinchi yaqinlashish, x_2 – ikkinchi yaqinlashish va h.k deyiladi. (3) ning o'zi esa ketma-ket yaqinlashishlar deyiladi. Uni hisoblash oldindan berilgan ε aniqlik uchun

$$|x_n - x_{n-1}| \leq \varepsilon \quad (n=1, 2, 3, \dots)$$

tengsizlik bajarilguncha davom ettiriladi.

Iteratsiya usuli quyidagicha geometrik talqin qilinadi:

Avval $y=x$ va $y=\varphi(x)$ funksiyaalarning grafiklari chiziladi. $x=\varphi(x)$ funksiya ildizi uchun $y=\varphi(x)$ funksiyaaning $y=x$ to'g'ri chiziq bilan kesishish nuqtasi olinadi. Boshlang'ich nuqta uchun $[a; b]$ kesmaga tegishli ixtiyoriy x_0 nuqtani olib, siniq chiziqlar o'tkaziladi. Bu siniq chiziqlar uchlarining abtsissalari berilgan tenglama ildizi ε ning keyingi yaqinlashishlarini beradi.



Bu usulni qo'llashda, asosan, berilgan tenglamaga ekvivalent bo'lgan $x=\varphi(x)$ tenglamani tanlash muhim ahamiyatga ega. Uni shunday tanlash kerak-ki, natijada

$$|\varphi'(x)| \leq q < 1$$

tengsizlik o'rinli bo'lsin. Bunda q soni qancha kichik bo'lsa, $\{x_n\}$ ketma-ketlikni ξ ildizga yaqinlashishi shunchalik tezroq bo'ladi.

Мисол. Iteratsiya usuli bilan quyidagi tenglama ildizini 0,001 gacha aniqlikda hisoblansin:

$$2 - \lg x - x = 0$$

Ечиш. Ildiz ajratilgan oraliqni topamiz, buning uchun tenglama ko'rinishini o'zgartiramiz:

$$\lg x = 2 - x$$

So`ngra  $y = \lg x$  va  $y=2-x$  funksiyaalarning grafiklarini chizamiz. Kesishish nuqtasining abtsissasi  $[1;2]$  kesmada bo`lgani uchun, boshlang`ich qiymatga  $x_0=1$  nuqtani olish mumkin. Berilgan tenglamani  $x=2-\lg x$  ko`rinishida yozib olamiz, bunda $\varphi(x)=2-\lg x$, $\varphi'(x)=-\frac{1}{x} \lg e$ bo`lib  $[1;2]$  kesmada  $|\varphi'(x)| < 1$  bo`lganligi uchun iteratsiya usulini qo`llash mumkin. Endi birinchi yaqinlashish qiymatini hisoblaymiz:

$$x_1=2-\lg x_0=2-\lg 1=2.$$

Ikkinchi va keyingi yaqinlashishlarni topamiz:

$$x_2=2-\lg x_1=2-0,3010=1,6990$$

$$x_3=2-\lg 1,6990=2-0,2302=1,7698$$

$$x_4=2-\lg 1,7698=2-0,2480=1,7520$$

$$x_5=2-\lg 1,7520=2-0,2435=1,7565$$

$$x_6=2-\lg 1,7565=2-0,2445=1,7555$$

$$x_7=2-\lg 1,7555=2-0,2444=1,7556$$

Shunday qilib, izlangan ildiz $x \approx 1,755$.

2-laboratoriya ishini bajarish uchun variantlar.

Quyidagi tenglamalar ildizlarini iteratsiya usuli bilan 0,1 aniqlikda taqribiy yechimini toping.

$$1. x^3-12x-5=0$$

$$2. x^3-2x^2-4x-7=0$$

$$3. x^3+3x^2-2=0$$

$$4. x^3-3x^2+1,5=0$$

$$5. x^3+3x^2-3,5=0$$

$$6. x^3-6x-8=0$$

$$7. x^3+x^2+x+2=0$$

$$8. 2x^3-3x^2-12x+5=0$$

$$9. x^3-3x^2+3=0$$

$$10. x^3+3x^2-24x-10=0$$

$$11. 2x^3+9x^2-21=0$$

$$12. x^3+3x^2-24x+10=0$$

$$13. 2x^3+9x^2-10=0$$

$$14. x^3+3x^2-3=0$$

$$15. x^3-12x-5=0$$

$$16. 2x^3+9x^2-4=0$$

$$17. x^3+3x^2-1=0$$

$$18. x^3-12x+6=0$$

$$19. x^3-3x^2+2,5=0$$

$$20. x^3-4x^2+2=0$$

$$21. 2x^3+9x^2-6=0$$

$$22. x^3-12x-10=0$$

$$23. x^3-3x^2+3,5=0$$

$$24. x^3+x-5=0$$

$$25. x^3-4x-6=0$$

3-laboratoriya ishi.

Mavzu: $f(x) = 0$ tenglamani Nyuton usuli bilan taqribiy yechish.

$f(x)=0$ tenglamaning boshlang'ich taqribiy yechimi ma'lum bo'lsa, u holda aniqlikni oshirish uchun eng qulay Nyuton usulidir. Bu usul «urinmalar usuli» ham deb yuritiladi.

Yaqinlashish ketma- ketligi $x_{n+1} = x_n - \frac{f(x_n)}{f'(x_n)}$ ni hosil qilishdan iborat bo'lib, u

$f(x)=0$ tenglamaning ildiziga yaqinlashadi. Uni yaqinlashishining etarli sharti quyidagi teorema bilan ifodalanadi.

Teorema. Agar $f(x)$ funksiyaa $[a;b]$ kesmada aniqlangan, ikki marta differentsiallanuvchi hamda $f(a) f(b)<0$ bo'lib, $f'(x), f''(x)$ hosilalar shu kesmada o'z ishorasini saqlasa, u holda $f(x_0), f'(x_0)>0$ tengsizlikni qanoatlantiruvchi $x_0 \in [a;b]$ boshlang'ich yaqinlashishdan kelib chiqib, $f(x)=0$ tenglamaning $[a;b]$

kesmadagi ξ yechimiga yagona yaqinlashuvchi $x_{n+1} = x_n - \frac{f(x_n)}{f'(x_n)}$ ($n=0,1,2,\dots$)

ketma-ketlikni hosil qilish mumkin.

Nyuton usuli sodda geometrik talqinga ega:

Agar $(x_n; f(x_n))$ koordinatali nuqtadan urinma o'tkazilsa, bu urinmaning OX o'q bilan kesishgan nuqtasining abtsissasi $f(x)=0$ tenglamaning yechimiga yaqinlashuvchi navbatdagi qiymatni beradi.

Yechimning n - yaqinlashishini baholashda quyidagi tengsizlik o'rinli bo'ladi:

$$|\xi - x_n| \leq \frac{M_2}{2m_1} |x_n - x_{n-1}|^2$$

bu erda $M_2 = |f''(x)|$ ning $[a, b]$ kesmadagi eng katta qiymati; $m_1 = |f'(x)|$ ning $[a, b]$ kesmadagi eng kichik qiymati.

Agar $|x_n - x_{n-1}| < \varepsilon$ bo'lsa, u holda $|\xi - x_n| \leq \frac{M_2 \varepsilon^2}{2m_1}$ bo'ladi.

Bundan ko'rinadiki, agar boshlang'ich yaqinlashish to'g'ri tanlansa, har bir iteratsiyadan keyin aniq raqamlar soni ortib boradi, ya'ni natijaga tezroq erishiladi. Demak, yechimni ε aniqlikda topish uchun iteratsiyani $|x_n - x_{n-1}| < \varepsilon_0 = \sqrt{2m_1 \varepsilon / M_2}$ tengsizlik bajarilganda to'xtatish mumkin.

Iteratsiyani bir qadamini ko'rsatamiz:

Agar $(n-1)$ - qadamdagi x_{n-1} yaqinlashish jarayonni to'xtatish shartini qanoatlantirmasa, $f(x_{n-1}), f'(x_{n-1})$ larni hisoblaymiz va ildizga navbatdagi

yaqinlashish $x_n = x_{n-1} - \frac{f(x_{n-1})}{f'(x_{n-1})}$ bo'ladi.

$|x_n - x_{n-1}| < \sqrt{2m_1 \varepsilon / M_2}$ shartda x_n miqdorni ξ ildizga (aniqlikda yaqinlashuvchi qiymat deb olamiz.

Nyuton usuli boshlang'ich yaqinlashish to'g'ri tanlanganda juda qulay bo'lib, jarayonni tezroq yaqinlashishga olib keladi. Agar $f(x)$ hosilaning sonli qiymatlari tenglamaning ildizi atrofida kam bo'lsa, u holda shu ildizga yaqinlashish jarayoni ko'p vaqt talab qiladi.

Misol. Nyuton usuli bilan

$$x^4 - 2x - 4 = 0$$

tenglamani 0,01 aniqlikda taqribiy ildizini toping.

Yechish. Berilgan tenglamaning o'ng tomonini $f(x)$ bilan belgilab, uning birinchi va ikkinchi tartibli hosilalarini topamiz:

$$f(x) = x^4 - 2x - 4$$

$$f'(x) = 4x^3 - 2$$

$$f''(x) = 12x^2$$

Berilgan tenglama (1;1,7) oraliqda musbat ildizga ega. $f(x)$ va $f'(x)$ funksiyaalar $x_0 = 1,7$ nuqtada bir xil ishoraga ega, ya'ni $f(1,7) = 0,952 > 0$, $f'(1,7) = 17,652 > 0$ bo'lgani uchun $x_1 = x_0 - \frac{f(x_0)}{f'(x_0)}$ formuladan foydalanamiz, u holda

$$x_1 = 1,7 - \frac{0,952}{17,652} = 1,646$$

$$x_2 = x_1 - \frac{f(x_1)}{f'(x_1)}, \text{ bunda } f(x_1) = f(1,646) = 0,048,$$

$$f'(x_1) = f'(1,646) = 15,838$$

$$x_2 = 1,646 - \frac{0,048}{15,838} = 1,643$$

Xuddi shu usul bilan quyidagilarni topish mumkin:

$$f(1,643) = 0,004; \quad f'(1,643) = 15,740$$

$$x_3 = x_2 - \frac{f(x_2)}{f'(x_2)} = 1,643 - \frac{0,004}{15,740} = 1,6427$$

Bundan berilgan tenglamaning 0,01 aniqlikdagi taqribiy yechimi 1,64 ekani kelib chiqadi.

3-laboratoriya ishini bajarish uchun variantlar.

Quyidagi tenglamalar ildizlarini Nyuton usuli bilan 0,01 aniqlikda taqribiy hisoblang:

$$1. x^4 - 5x - 7 = 0$$

$$2. x^4 - 2x - 4 = 0$$

$$3. x^3 + x^2 - 11 = 0$$

$$4. x^4 - 0,5x - 1 = 0$$

$$5. x^4 + 3x - 20 = 0$$

$$6. x^3 + 4x + 1 = 0$$

$$14. 5x^3 - x - 1 = 0$$

$$15. x^3 + x^2 - 3 = 0$$

$$16. x^3 - 6x^2 + 20 = 0$$

$$17. x^3 - 4x + 1 = 0$$

$$18. x^4 + 3x - 15 = 0$$

$$19. x^3 - 2x + 5 = 0$$

$$7. x^3 - 2x - 5 = 0$$

$$8. x^3 - 12x - 5 = 0$$

9. $x^4 - 3x + 1 = 0$

$$10. x^3 - 2x^2 - 4x - 7 = 0$$

$$11. x^3 + 3x + 5 = 0$$

12. $x^3+x-1=0$

$$13. x^4 + 5x - 7 = 0$$

$$20. x^4 - 3x + 1 = 0$$

$$21. x^3 + 3x + 3 = 0$$

$$22. x^4 + 5x - 7 = 0$$

23. $x^4 - 2x - 5 = 0$

$$24. x^4 - x - 2 = 0$$

$$25. x^4 + 4x - 8 = 0$$

4-laboratoriya ishi.

Mavzu: Chiziqli tenglamalar sistemasini oddiy iteratsiyalar usuli bilan yyechish.

n noma'lumli n ta chiziqli tenglamalar sistemasining umumiy ko'rinishi quyidagicha:

$$\begin{cases} a_{11}x_1 + a_{12}x_2 + \dots + a_{1n} x_n = b_1 \\ a_{21}x_1 + a_{22}x_2 + \dots + a_{2n} x_n = b_2 \\ \\ a_{n1} x_1 + a_{n2} x_2 + \dots + a_{nn} x_n = b_n \end{cases} \quad (1)$$

Agar sistemaning rangi r uning o'zgaruvchilar soni n ga teng bo'lsa, ya'ni

$$r = n$$

bo'lsa, uning yagona yechimi bo'ladi. Faraz qilaylik, $r = n$ bo'lsin. Agar n kichik bo'lsa, sistemaning yechimi aniq topilishi mumkin (yaqinlashlardagi xatoliklar hisobga olinmaganda). Agar n katta bo'lsa, yechimni aniq topish qiyinlashib ketadi; bunday hollarda yvechimni taqriban topish maqsadga muvofiqdir.

Bir nechta taqribiy yechish usullari mavjud bo'lib, ulardan biri – oddiy iteratsiyalar (ketma-ket yaqinlashishlar) usulidir. Bu usulda tenglamalar sistemasining ko'rinishi teng kuchli almashtirishlar orqali quyidagi shakllardan biriga keltiriladi:

[illegible]

$$\text{Bu erda } \beta_i = \frac{b_i}{a_{ij}}, \quad \alpha_{ij} = -\frac{a_{ij}}{a_{jj}} \quad (i \neq j), \quad \alpha_{ij} = 0, \quad (i = j)$$

Belgilashlar kiritib, (2) ni qisqaroq yozish mumkin:

$$\bar{x} = \bar{\beta} + \alpha \bar{x} \quad (2)'$$

Bu yerda

$$\bar{x} = \begin{pmatrix} x_1 \\ x_2 \\ \cdot \\ \cdot \\ \cdot \\ x_n \end{pmatrix} \text{ - noma'lumlar vektori;} \quad (3)$$

$$\alpha = \begin{pmatrix} 0 & \alpha_{12} & \alpha_{13} & \dots & \alpha_{1n} \\ \alpha_{21} & 0 & \alpha_{23} & \dots & \alpha_{2n} \\ \alpha_{31} & \alpha_{32} & 0 & \dots & \alpha_{3n} \\ \dots & \dots & \dots & \dots & \dots \\ \alpha_{n1} & \alpha_{n2} & \alpha_{n3} & \alpha_{n-1} & \dots & 0 \end{pmatrix} \quad (4)$$

bu o`ng tomonda turgan o`zgaruvchilar koeffitsiyentlaridan tuzilgan matritsa;

$$\bar{\beta} = \begin{pmatrix} \beta_1 \\ \beta_2 \\ \cdot \\ \cdot \\ \cdot \\ \beta_n \end{pmatrix} \text{ - ozod hadlar vektori} \quad (5)$$

Agar (1) sistemada

$$a_{ii} = \alpha'_{ii} + \alpha''_{ii} \quad (6)$$

deb olinsa, bu sistema quyidagicha o`zgartiriladi:

$$\begin{cases} (\alpha'_{11} + \alpha''_{11})x_1 + \alpha_{12}x_2 + \dots + \alpha_{1n}x_n = b_1 \\ \alpha_{12}x_1 + (\alpha'_{22} + \alpha''_{22})x_2 + \dots + \alpha_{2n}x_n = b_2 \\ \dots \\ \alpha_{n1}x_1 + \alpha_{n2}x_2 + \dots + \alpha_{nn-1}x_{n-1} + (\alpha'_{nn} + \alpha''_{nn})x_n = b_n \end{cases}$$

Buni quyidagicha o`zgartirish mumkin:

$$\begin{cases} x_1 = \beta_1 + \alpha_{11}x_1 + \alpha_{12}x_2 + \dots + \alpha_{1n}x_n \\ x_2 = \beta_2 + \alpha_{21}x_1 + \alpha_{22}x_2 + \dots + \alpha_{2n}x_n \\ \dots \\ x_n = \beta_n + \alpha_{n1}x_1 + \alpha_{n2}x_2 + \dots + \alpha_{nn}x_n \end{cases} \quad (7)$$

bu yerda

$$\begin{aligned} \alpha_{ii} &= -\frac{\alpha'_{ii}}{\alpha''_{ii}} & \beta_i &= -\frac{b_i}{\alpha''_{ii}} \\ \alpha_{ij} &= -\frac{\alpha_{rj}}{\alpha''_{ij}} & (i \neq j) \end{aligned} \quad (8)$$

Endi (7) sistemani matritsa-vektor ko`rinishida yozsak, u ham (2)( kabi bo`ladi:

$$\bar{x} = \bar{\beta} + \alpha \bar{x} \quad (9)$$

bunda α matritsa quyidagicha bo'ladi:

$$\alpha = \begin{pmatrix} \alpha_{11} & \alpha_{12} & \dots & \alpha_{1n} \\ \alpha_{21} & \alpha_{22} & \dots & \alpha_{2n} \\ \alpha_{n1} & \alpha_{n2} & \dots & \alpha_{nn} \end{pmatrix} \quad (10)$$

$\bar{\beta}$ ning ko'rinishida a_{ii} o'rniga α''_{ii} yoziladi.

Agar (10) matritsada diagonal elementlar nol bo'lsa ($\alpha_{ii}=0$; $\alpha'_{ii}=0$; $\alpha''_{ii}=a_{ii}$), (4) matritsa kelib chiqadi.

Shunday qilib, tenglamalar sistemasi (1) quyidagi ko'rinishga keladi:

$$\bar{x} = \bar{\beta} + \alpha \bar{x} \quad (9)$$

bu erda $\bar{x}$ vektor (3) ko'rinishida, α - matritsa (4) yoki (10) ko'rinishda $\bar{\beta}$ -vektor (5) yoki (8) ko'rinishda bo'ladi.

α ning ikki xil ko'rinishda olish keyinroq ko'riladigan yaqinlashtirish shartlaridan kelib chiqadi.

$\bar{x}^{(0)} = \bar{\beta}$ deb olib, quyidagicha ketma-ket yaqinlashtirish jarayonini quramiz:

$$\bar{x}^{(k+1)} = \bar{\beta} + \alpha \bar{x}^{(k)} \quad (k=0, 1, 2, 3, \dots) \quad (11)$$

(11) da $k=0$ deb olib $\bar{x}^{(1)}$ ni, $k=1$ deb olib $\bar{x}^{(2)}$ ni, ... $k=m$ deb, $\bar{x}^{(m+1)}$... larni topamiz.

Agar topilgan ketma-ketlik $\bar{x}^{(1)}$, $\bar{x}^{(2)}$, ..., $\bar{x}^{(a)}$, ... limitga ega bo'lsa, ya'ni

$$\bar{x}^* = \lim_{k \rightarrow \infty} \bar{x}^{(k)} \quad (12)$$

mavjud bo'lsa, bu limit ($\bar{x}^*$) (9) tenglamaning va demak berilgan (1) sistemaning yechimi bo'ladi.

Quyidagi teorema o'rinalidir: Agar α matritsaning biror kanonik normasi $\|\alpha\|$ birdan kichik bo'lsa ($\|\alpha\| < 1$), (11) iteratsiya jarayoni yaqinlashadi.

Eslatma. 1) Amaliyotda $\|\alpha\|$ uchun quyidagi uchta miqdorlardan biri ishlatiladi:

$$\|\alpha\|_m = \max_i \sum_{j=1}^n |\alpha_{ij}|, \quad m\text{-норма}$$

$$\|\alpha\|_l = \max_j \sum_{i=1}^n |\alpha_{ij}|, \quad l\text{-норма}$$

$$\|\alpha\|_k = \sqrt{\sum_{i=1}^n \sum_{j=1}^n (\alpha_{ij})^2}, \quad k\text{-норма}$$

(1) sistemaning yechimi ε aniqlikda topilishi kerak bo'lsa, hisoblash ishlari

$$\left| \bar{x}^{(x+1)} - \bar{x}^{(x)} \right| < \varepsilon \quad (13)$$

tengsizligi $\bar{x}$ ning barcha komponentalari bo'yicha bajarilgunga qadar davom ettiriladi, ya'ni

$$\left| x_j^{(x+1)} - x_j^{(k)} \right| < \varepsilon \quad (j=1,2,\dots,n) \quad (13)'$$

bo'lguncha (13), (13)' shartlar bajarilganda $\bar{x}^* = \bar{x}^{-(k+1)}$ deb olinadi.

Misol. Quyidagi sistema uchun oddiy iteratsiyalar usulining yaqinlashishi ko'rsatilsin va yechim $\varepsilon = 10^{-3}$ aniqlik bilan topilsin:

$$\begin{cases} 20x_1 - x_2 + 2x_3 - 3x_4 = 6 \\ x_1 + 10x_2 + x_3 - 2x_4 = 5 \\ 2x_1 + 3x_2 + 20x_3 + x_4 = -10 \\ 4x_1 - 2x_2 + x_3 - 40x_4 = 8 \end{cases}$$

Yechish: Birinchi tenglamada $20x_1$, ikkinchi tenglamada $10x_2$, uchinchi tenglamada $20x_3$, to'rtinchi tenglamada $(-40)x_4$ ni chap tomonda qoldirib qolgan hadlarni o'ng tomonga o'tkazamiz:

$$\begin{cases} 20x_1 = 6 - x_2 + 2x_3 - 3x_4 \\ 10x_2 = 5 - x_1 - x_3 + 2x_4 \\ 20x_3 = -10 - 2x_1 - 3x_2 - x_4 \\ -40x_4 = 8 - 4x_1 + 2x_2 - x_3 \end{cases}$$

Birinchi tenglamani x_1 ning koeffitsiyentni 20ga, ikkinchi tenglamani x_2 ning koeffitsiyentni 10 ga, uchinchi tenglamani x_3 ning koeffitsiyentni 20 ga, to'rtinchi tenglamani esa x_4 ning koeffitsiyentni (-40) ga bo'lib quyidagi sistemani hosil qilamiz.

$$\begin{cases} x_1 = 0,3 + 0,05x_2 - 0,1x_3 + 0,15x_4 \\ x_2 = 0,5 - 0,1x_1 - 0,1x_3 + 0,2x_4 \\ x_3 = -0,5 - 0,1x_1 - 0,15x_2 - 0,05x_4 \\ x_4 = -0,2 + 0,1x_1 - 0,05x_2 + 0,025x_3 \end{cases}$$

Bundan ko'rinadiki sistemaning matritsasi

$$\alpha = \begin{pmatrix} 0 & 0,05 & -0,1 & 0,15 \\ -0,1 & 0 & -0,1 & 0,2 \\ -0,1 & -0,15 & 0 & -0,05 \\ 0,1 & -0,05 & 0,025 & 0 \end{pmatrix} \text{ va ozod hadlari vektori } \bar{\beta} = \begin{pmatrix} 0,3 \\ 0,5 \\ -0,5 \\ -0,2 \end{pmatrix}$$

α - matritsaning l normasini hisoblaymiz:

$$\begin{aligned} \|\alpha\|_l &= \max_j [0 + |-0,1| + |-0,1| + 0,1; \quad 0,05 + 0 + |-0,15| + |-0,05|; \\ &\quad |0,1| + |-0,1| + 0 - 0,025; \quad 0,15 + 0,2 + |-0,05| + 0] = \\ &= \max_i [0,3; \quad 0,25; \quad 0,225; \quad 0,4] = 0,4 < 1 \end{aligned}$$

$\|\alpha\|_l = 0,4 < 1$, demak, oddiy yaqinlashish jarayoni yaqinlashadi.

Hisoblash ishlari quyidagi ko'rinishda olib boriladi:

$$\begin{pmatrix} x_1^{(k+1)} \\ x_2^{(k+1)} \\ x_3^{(k+1)} \\ x_4^{(k+1)} \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} 0,3 \\ 0,5 \\ -0,5 \\ -0,2 \end{pmatrix} + \begin{pmatrix} 0 & 0,05 & -0,1 & 0,15 \\ -0,1 & 0 & -0,1 & 0,2 \\ -0,1 & -0,15 & 0 & -0,05 \\ 0,1 & -0,05 & 0,025 & 0 \end{pmatrix} \begin{pmatrix} x_1^{(k)} \\ x_2^{(k)} \\ x_3^{(k)} \\ x_4^{(k)} \end{pmatrix}$$

$$\bar{x}^{(0)} = \bar{\beta} \quad \text{яъни} \quad \begin{pmatrix} x_1^{(0)} \\ x_2^{(0)} \\ x_3^{(0)} \\ x_4^{(0)} \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} 0,3 \\ 0,5 \\ -0,5 \\ -0,2 \end{pmatrix}$$

deb olib $\bar{x}^{(1)}$ ni topamiz.

$$\begin{pmatrix} x_1^{(1)} \\ x_2^{(1)} \\ x_3^{(1)} \\ x_4^{(1)} \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} 0,3 \\ 0,5 \\ -0,5 \\ -0,2 \end{pmatrix} + \begin{pmatrix} 0 & 0,05 & -0,1 & 0,15 \\ -0,1 & 0 & -0,1 & 0,2 \\ -0,1 & -0,15 & 0 & -0,05 \\ 0,1 & -0,05 & 0,025 & 0 \end{pmatrix} \begin{pmatrix} 0,3 \\ 0,5 \\ -0,5 \\ -0,2 \end{pmatrix} =$$

$$= \begin{pmatrix} 0,3 \\ 0,5 \\ -0,5 \\ -0,2 \end{pmatrix} + \begin{pmatrix} 0 \cdot 0,3 + 0,05 \cdot 0,5 + (-0,1) \cdot (-0,5) + 0,15 \cdot (-0,2) \\ -0,1 \cdot 0,3 + 0,15 + (-0,1) \cdot (-0,5) + 0,2 \cdot (-0,2) \\ -0,1 \cdot 0,3 + (-0,15) \cdot 0,5 + 0 \cdot (-0,5) + (-0,05) \cdot (-0,2) \\ 0,1 \cdot 0,3 + (-0,05) \cdot 0,5 + 0,025 \cdot (-0,5) + 0 \cdot (-0,2) \end{pmatrix} =$$

$$= \begin{pmatrix} 0,3 \\ 0,5 \\ -0,5 \\ -0,2 \end{pmatrix} + \begin{pmatrix} 0,045 \\ -0,02 \\ -0,095 \\ -0,0075 \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} 0,335 \\ 0,48 \\ -0,595 \\ -0,2075 \end{pmatrix}. \quad \text{Demak,} \quad \begin{pmatrix} x_1^{(1)} \\ x_2^{(1)} \\ x_3^{(1)} \\ x_4^{(1)} \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} 0,335 \\ 0,48 \\ -0,595 \\ -0,2075 \end{pmatrix}$$

$k=1$ deb olib, $\bar{x}^{(2)}$ ni hisoblaymiz:

$$\begin{pmatrix} x_1^{(2)} \\ x_2^{(2)} \\ x_3^{(2)} \\ x_4^{(2)} \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} 0,3 \\ 0,5 \\ -0,5 \\ -0,2 \end{pmatrix} + \begin{pmatrix} 0 & 0,05 & -0,1 & 0,15 \\ -0,1 & 0 & -0,1 & 0,2 \\ -0,1 & -0,15 & 0 & -0,05 \\ 0,1 & -0,05 & 0,025 & 0 \end{pmatrix} \begin{pmatrix} 0,335 \\ 0,48 \\ -0,505 \\ -0,2075 \end{pmatrix}$$

Buni yuqoridagiga o`xshash hisoblab chiqsak,

$$\bar{x}^{(2)} = \begin{pmatrix} 0,3529 \\ 0,4765 \\ -0,5947 \\ -0,2054 \end{pmatrix} \text{ ni topamiz.}$$

Hisoblashlarni davom etdirib quyidagiga ega bo`lamiz:

	$\bar{x}^{(0)}$	$\bar{x}^{(1)}$	$\bar{x}^{(2)}$	$\bar{x}^{(3)}$	$\bar{x}^{(4)}$	$\bar{x}^{(5)}$
x_1	0,3	0,335	0,3522	0,3525	0,3533	0,3534
x_2	0,5	0,48	0,4765	0,4832	0,4837	0,4837
x_3	-0,5	-0,595	-0,5947	-0,5964	-0,5976	-0,5978
x_4	-0,2	-0,2075	-0,2054	-0,2035	-0,2038	-0,2037

Bu jadvaldan ko`rinadiki $\bar{x}$ uchun $\bar{x}^{(5)}$ ning qiymatlari olinishi mumkin, chunki $\bar{x}^{(4)}$ va $\bar{x}^{(5)}$ lar orasidagi farqlar $|\bar{x}^{(4)} - \bar{x}^{(5)}| < \varepsilon$.

4-laboratoriya ishini bajarish uchun variantlar.

Tenglamalar sistemasi oddiy iteratsiyalar usuli bilan $\varepsilon = 0.001$ aniqlikda echilsin.

$$1. \begin{cases} 5x_1 - x_2 + 2x_3 + x_4 = 10 \\ 2x_1 + 10x_2 - x_3 - x_4 = 15 \\ -x_1 + 2x_2 + 20x_3 + x_4 = 5 \\ x_1 + 3x_2 - x_3 + 10x_4 = 10 \end{cases}$$

$$2. \begin{cases} 4x_1 + x_2 - x_3 + x_4 = 8 \\ x_1 + 5x_2 - x_3 - x_4 = 10 \\ 2x_1 + 4x_2 + 10x_3 + x_4 = 15 \\ -x_1 - 2x_2 + 3x_3 + 20x_4 = 15 \end{cases}$$

$$3. \begin{cases} 8x_1 + 2x_2 - x_3 + x_4 = 12 \\ -2x_1 + 10x_2 + x_3 - 3x_4 = 20 \\ x_1 + 2x_2 - 5x_3 - x_4 = 15 \\ -x_1 - 2x_2 + 2x_3 + 10x_4 = 25 \end{cases}$$

$$4. \begin{cases} 5x_1 + 2x_2 - x_3 + 2x_4 = 15 \\ x_1 - 4x_2 + x_3 - x_4 = 8 \\ 2x_1 + x_2 - 8x_3 - 2x_4 = 16 \\ x_1 - 2x_2 + x_3 + 10x_4 = 20 \end{cases}$$

син.
$$5. \begin{cases} 10x_1 - 2x_2 + x_3 - x_4 = 30 \\ 3x_1 + 20x_2 - x_3 + x_4 = 20 \\ x_1 - 2x_2 + 8x_3 + 2x_4 = 16 \\ -x_1 + 2x_2 - x_3 - 20x_4 = 10 \end{cases}$$

$$6. \begin{cases} 5x_1 - x_2 + x_3 - x_4 = 5 \\ x_1 + 10x_2 + 3x_3 - 2x_4 = 10 \\ -x_1 - 3x_2 - 20x_3 + x_4 = 15 \\ 3x_1 + x_2 - x_3 + 10x_4 = 8 \end{cases}$$

$$7. \begin{cases} 10x_1 + 2x_2 - x_3 + x_4 = 5 \\ -2x_1 + 20x_2 + x_3 - 3x_4 = 25 \\ x_1 + 2x_2 + 5x_3 - x_4 = 10 \\ 3x_1 - x_2 + x_3 - 10x_4 = 20 \end{cases}$$

$$8. \begin{cases} 10x_1 + x_2 - x_3 + 4x_4 = 8 \\ x_1 + 8x_2 + x_3 - 2x_4 = 12 \\ 2x_1 + x_2 + 10x_3 - x_4 = 15 \\ -2x_1 - 2x_2 - x_3 + 10x_4 = 20 \end{cases}$$

$$9. \begin{cases} 6x_1 - 2x_2 - x_3 + x_4 = 5 \\ -2x_1 + 20x_2 + x_3 - 2x_4 = 10 \\ 2x_1 - x_2 + 10x_3 + x_4 = 12 \\ -x_1 + x_2 - 2x_3 + 8x_4 = -10 \end{cases}$$

$$10. \begin{cases} 7x_1 - x_2 + x_3 + 2x_4 = 8 \\ x_1 + 8x_2 - x_3 + 3x_4 = 12 \\ -2x_1 + x_2 + 10x_3 + 4x_4 = 20 \\ x_1 - 2x_2 + 3x_4 - 10x_4 = 25 \end{cases}$$

$$11. \begin{cases} 10x_1 + 2x_2 + 3x_3 + 4x_4 = 15 \\ 2x_2 + 5x_3 - x_3 + x_4 = 10 \\ x_1 + 2x_2 - 10x_3 - 2x_4 = 16 \\ -x_1 - 2x_2 + x_3 + 8x_4 = 12 \end{cases}$$

$$12. \begin{cases} 5x_1 - 2x_2 - x_3 + x_4 = 15 \\ -2x_1 + 10x_2 + x_3 - 2x_4 = 20 \\ x_1 + 3x_2 - 20x_3 + 4x_4 = 30 \\ -x_1 - 2x_2 + 3x_3 + 10x_4 = 20 \end{cases}$$

$$13. \begin{cases} 10x_1 - 2x_2 - 3x_3 - 4x_4 = 15 \\ 2x_1 - 5x_2 + x_3 - x_4 = 10 \\ -x_1 - 2x_2 + 10x_3 + 2x_4 = -16 \\ x_1 + 2x_2 - x_3 - 8x_4 = 12 \end{cases}$$

$$14. \begin{cases} -10x_1 - x_2 + x_3 - x_4 = 8 \\ -x_1 - 8x_2 - x_3 + 2x_4 = 12 \\ -2x_1 - x_2 - 10x_3 + x_4 = 15 \\ 2x_1 + 2x_2 + x_3 - 10x_4 = 20 \end{cases}$$

$$15. \begin{cases} -10x_1 + 2x_2 - x_3 + x_4 = 30 \\ -3x_1 - 20x_2 + x_3 - x_4 = 20 \\ -x_1 + 2x_2 - 8x_3 - 2x_4 = 16 \\ x_1 - 2x_2 + x_3 + 20x_4 = 10 \end{cases}$$

$$16. \begin{cases} -5x_1 + x_2 - x_3 + x_4 = 5 \\ -x_1 - 10x_2 - 3x_3 + 2x_4 = 10 \\ x_1 + 3x_2 + 20x_3 - x_4 = 15 \\ -3x_1 - x_2 + x_3 - 10x_4 = 8 \end{cases}$$

$$17. \begin{cases} -10x_1 + 2x_2 + x_3 - x_4 = 5 \\ -2x_1 - 20x_2 - x_3 + 3x_4 = 25 \\ -x_1 - 2x_2 - 5x_3 + x_4 = 10 \\ -3x_1 + x_2 - x_3 + 10x_4 = 20 \end{cases}$$

$$18. \begin{cases} -10x_1 - x_2 + x_3 - x_4 = 8 \\ -x_1 - 8x_2 - x_3 + 2x_4 = 12 \\ -2x_1 - x_2 - 10x_3 + x_4 = 15 \\ 2x_1 + 2x_2 + x_3 - 10x_4 = 20 \end{cases}$$

$$19. \begin{cases} -8x_1 - 2x_2 + x_3 - x_4 = 12 \\ 2x_1 - 10x_2 - x_3 + 3x_4 = 20 \\ -x_1 - 2x_2 + 5x_3 - x_4 = 15 \\ -x_1 + 2x_2 + 2x_3 - 10x_4 = 25 \end{cases}$$

$$20. \begin{cases} -5x_1 - 2x_2 + x_3 - 2x_4 = 15 \\ -x_1 + 4x_2 - x_3 + x_4 = 8 \\ -2x_1 - x_2 + 8x_3 + 2x_4 = 16 \\ -x_1 + 2x_2 - x_3 - 20x_4 = 20 \end{cases}$$

$$21. \begin{cases} -5x_1 + x_2 - x_3 + x_4 = 5 \\ x_1 - 5x_2 + x_3 - x_4 = 1 \\ x_1 + 2x_2 + 8x_3 + x_4 = 6 \\ -2x_1 - x_2 + x_3 + 10x_4 = 10 \end{cases}$$

$$22. \begin{cases} 8x_1 - x_2 + x_3 - x_4 = 10 \\ x_1 + 10x_2 - 2x_3 + x_4 = 8 \\ -x_1 + 2x_2 - 12x_3 - x_4 = 16 \\ 3x_1 - x_2 + x_3 + 8x_4 = 24 \end{cases}$$

$$23. \begin{cases} 10x_1 - x_2 + x_3 - x_4 = 5 \\ x_1 + 8x_2 - x_3 + x_4 = 4 \\ 2x_1 - x_2 + 16x_3 - x_4 = 8 \\ -x_1 + x_2 + 2x_3 - 20x_4 = 15 \end{cases}$$

$$24. \begin{cases} 4x_1 - x_2 + x_3 - x_4 = 8 \\ x_1 + 5x_2 - x_3 + x_4 = 12 \\ -x_1 + 2x_2 + 8x_3 - x_4 = 16 \\ 2x_1 - x_2 + x_3 + 10x_4 = 15 \end{cases}$$

$$25. \begin{cases} -5x_1 + x_2 - x_3 + x_4 = 15 \\ x_1 - 8x_2 + x_3 - x_4 = 16 \\ -x_1 + 2x_2 - 10x_3 + x_4 = 8 \\ x_1 - x_2 - 3x_3 + 16x_4 = 24 \end{cases}$$

5-laboratoriya ish.

Mavzu: Aniq integrallarni taqribiy hisoblash, to'g'ri to'rtburchak, trapetsiyalar, Simpson usuli.

Agar $y=f(x)$ da uzluksiz va uning boshlang'ich funksiyaasi $f(x)$ ma'lum bo'lsa, bu funksiyaadan olingan aniq integral Nyuton-Leybnits formulasi bilan hisoblanadi, ya'ni

$$\int_a^b f(x) dx = F(x) \Big|_a^b = F(b) - F(a) \quad (1)$$

Ammo ko'p hollarda $f(x)$ ning boshlang'ichini topish juda murakkab, yoki umuman topib bo'lmaydi, va demak (1) formulani qo'llash mumkin emas. Bundan tashqari $f(x)$ - jadval ko'rinishida berilgan bo'lsa, uning boshlang'ich funksiyaasi degan tushunchaning ma'nosi yo'qoladi. Shuning uchun integrallarni taqribiy hisoblash katta ahamiyatga egadir.

Aniq integralni sonli integrallash (taqriban hisoblash) mexanik kvadraturalash deb aytiladi; unga mos formulalar kvadraturalari deb yuritiladi.

Kvadratura formulalarining asosida aniq integralning geometrik ma'nosi yotadi va ularning barchasida integral ostidagi funksiyaaning integrallash oralig'idagi bir nechta qiymatlaridan foydalaniladi.

Kvadratura formulalarining umumiy ko'rinishi quyidagicha bo'ladi:


$$\int_a^b f(x) dx = F(x) = \sum_i A_i f(x_i) \quad (2)$$

bu erdagi A_i lar qandaydir o'zgarmas koeffitsiyentlar, ularning qiymatlari ma'lum qoidalar asosida topiladi. Ayrim usullarni ko'ramiz.

a) To'g'ri to'rtburchaklar formulasi. Faraz qilaylik, $y = f(x)$ funksiyaa $[a, b]$ kesmada uzluksiz bo'lsin. Ushbu

$$\int_a^b f(x) dx$$

aniq integralni hisoblash talab etiladi. $[a, b]$ kesmani $a = x_0, x_1, x_2, \dots, x_i, \dots, x_n = b$ nuqtalar bilan n – ta teng qismga bo'lamiz. Har bir bo'lakning uzunligi



$\Delta x = \frac{b-a}{n}$ bo'ladi. $f(x)$ funksiyaaning $x_0, x_1, x_2, \dots, x_i, \dots, x_n$ nuqtalardagi qiymatini

$y_0, y_1, y_2, \dots, y_i, \dots, y_n$ bilan belgilaymiz va quyidagini hosil qilamiz:

$$y_0 = f(x_0), y_1 = f(x_1), y_2 = f(x_2), \dots, y_i = f(x_i), \dots, y_n = f(x_n).$$

Shtrixlangan to'rtburchaklar (ichki) yuzlarining yig'indisi egri chiziqli trapetsiya yuziga taqriban teng deb olamiz va quyidagiga ega bo'lamiz:

$$\begin{aligned} \int_a^b f(x) dx &\approx y_0 \Delta x + y_1 \Delta x + y_2 \Delta x + \dots + y_i \Delta x + \dots + y_{n-1} \Delta x = \\ &= \Delta x (y_0 + y_1 + \dots + y_{n-1}) = \sum_{i=0}^{n-1} y_i \Delta x = \Delta x \sum_{i=0}^{n-1} y_i = \frac{b-a}{n} \sum_{i=0}^{n-1} y_i \end{aligned} \quad (4)$$

Agar egri chiziqli trapetsiyaning yuzi tashqi to'rtburchaklar yuzlarining yig'indisiga taqriban teng deb olsak, quyidagi formulaga ega bo'lamiz:

$$\begin{aligned} \int_a^b f(x) dx &\approx y_1 \Delta x + y_2 \Delta x + \dots + y_i \Delta x + \dots + y_n \Delta x = \\ &= \Delta x (y_1 + y_2 + \dots + y_i + \dots + y_n) = \frac{b-a}{n} \sum_{i=1}^n y_i \end{aligned} \quad (5)$$

(4) va (5) formulalar aniq integralni hisoblashning to'g'ri to'rtburchaklar formulasi deb aytiladi. Agar $f(x) \geq 0$ va o'suvchi bo'lsa, u holda (4) formula «ichki» to'g'ri to'rtburchaklardan tuzilgan pog'onali figuraning yuzini ifodalaydi. (5)


formula esa «tashqi» to'rtburchaklardan tuzilgan pog'onali figuraning yuzini ifodalaydi. Bu formulalarning absolyut xatosi (R)

$$R \leq \frac{(b-a)^2}{4n} \max_{[a;b]} |f'(x)| \quad (6)$$

orqali ifodalanadi.

b). Trapetsiyalar formulasi.

$[a; b]$ kesmani bo'linishini avvalgidek qoldiramiz, lekin Δx xususiy intervallarga mos keluvchi $y=f(x)$ chiziqlarning har bir yoyini, bu yoyning chetki nuqtalarini tutashtiruvchi vatar bilan almashtiramiz.



Bu berilgan egri chiziqli trapetsiyaning n ta to'g'ri chiziqli trapetsiyalar yuzlarining yig'indisi bilan almashtirilganini bildiradi (2-rasm). Bunday figuraning yuzi egri chiziqli trapetsiyaning yuzini to'g'ri to'rtburchaklardan tuzilgan pog'onali figuraning yuziga qaraganda ancha aniq ifodalashi geometrik jihatdan ravshandir. Xususiy intervalda yasalgan har bir trapetsiyaning yuzi:

$$S_1 = \frac{y_0 + y_1}{2} \cdot \Delta x; \quad S_2 = \frac{y_1 + y_2}{2} \cdot \Delta x \quad \dots \quad S_n = \frac{y_{n-1} + y_n}{2} \cdot \Delta x$$

ga tengdir.

Bu yuzlarni qo'shib

$$\int_a^b f(x) dx \approx \Delta x \left(\frac{y_0 + y_1}{2} + \frac{y_1 + y_2}{2} + \dots + \frac{y_{n-1} + y_n}{2} \right) = \frac{b-a}{n} \left(\frac{y_0 + y_n}{2} + y_1 + y_2 + \dots + y_{n-1} \right) \quad (7)$$

ni hosil qilamiz. Bu trapetsiyalar formulasidir, n soni qancha katta bo'lsa va $\Delta x = \frac{b-a}{n}$ bo'linish qadami qanchalik kichik bo'lsa, (7) formulaning o'ng qismida yozilgan yig'indi integralning qiymatini shuncha aniqlik bilan hisoblaydi. To'g'ri to'rtburchaklar formulasi ko'rinishidagi kabi trapetsiyalar formulasining absolyut xatosi

$$R \leq \frac{(b-a)^3}{12n^2} \cdot \max_{[a;b]} |f''(x)| \quad (8)$$

tengsizligi orqali baholanadi.

Misol. Ushbu

$$I = \int_0^1 (x^3 + 1) dx$$

integralning taqribiy qiymatini to'g'ri to'rtburchaklar va trapetsiyalar formulalari bo'yicha hisoblang.

Yechish: Avval berilgan integralni Nyuton-Leybnits formulasi bilan hisoblaymiz.

$$I = \int_0^1 (x^3 + 1) dx = \left(\frac{x^4 + x}{4} \right) \Big|_0^1 = 1 \frac{1}{4} = 1,25$$

